



## XII. O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI

### Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2023-yilning yanvar-dekabr oylari holatiga)

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.** 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 779,8 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.


2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Nukus shahrida 4 996,4 ming so‘m (Respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 132,2 foiz), Qo‘ng‘irot tumanida 4 432,3 ming so‘m (117,3 foiz) va Taxiatosh tumanida 4 264,2 ming so‘m (112,8 foiz) ni tashkil etgan.

### Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad

(2023-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda  
kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad mlrd.so‘m	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
<b>Respublika bo‘yicha jami</b>	<b>160 312</b>	<b>7 271,3</b>	<b>3 779,8</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	12 516	784,7	5 224,9
Qurilish	3 304	140,8	3 551,7
Savdo	703	34,2	4 057,6
Tashish va saqlash	9 033	567,7	5 236,9
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	69	3,4	4 062,3
Axborot va aloqa	1 119	84,0	6 256,0
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	2 777	356,7	10 704,5
Ta‘lim	77 919	2 725,3	2 914,7
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	26 443	1 042,3	3 284,7
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 883	100,3	2 900,3
Boshqa faoliyat turlari	23 546	1 268,2	4 488,5

**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o‘rtacha oylik ish haqi,  
ming so‘m**



2023-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng baland ko‘rsatkichi – bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasiga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘rnatilgan sur‘ati 120,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, axborot va aloqa sohasi 169,9 %, tashish va saqlash sohasida 121,1 %, sanoat sohasi 112,6 %, savdo sohasida 139,3 %, qurilish sohasida 123,5 %, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish 115,2 % hamda ta‘lim sohasida 115,9 % ga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin.

**Sanoat sohasida o‘rtacha oylik ish haqi**



**O‘rtacha oylik nominal  
hisoblangan ish haqi**

## Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m



**27 598,1**

*Tog‘-kon sanoati va  
ochiq konlarni ishlash*



**5 104,5**

*Ishlab chiqarish sanoati*



**2 208,9**

*Suv bilan ta‘minlash,  
kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig‘ish va  
utilizatsiya qilish*




**7 371,5**

*Elektr, gaz, bug‘  
bilan ta‘minlash va  
havoni konditsiyalash*

Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog‘i (27 598,1 ming so‘m), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash (7 371,5 ming so‘m) hamda ishlab chiqarish sanoati (5 104,5 ming so‘m)da kuzatildi.

### Hududlar kesimida



● ming so‘m  
● o‘sish sur‘ati


### O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m




Sanoat iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Nukus shahri (9 502,2 ming so‘m), Taxiatoosh tumani (7 906,1 ming so‘m) hamda Qo‘ng‘irot tumanlarida (5 113,6 ming so‘m) kuzatildi.

### O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

### Qurilish sohasida o‘rtacha oylik ish haqi




### Hududlar kesimida




Qurilish faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Qo‘ng‘irot tumani (4 784,7 ming so‘m), Taxiatoş tumani (3 773,5 ming so‘m) hamda Nukus shahri (3 605,7 ming so‘m)da qayd etildi.

### O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m



## Savdo sohasida o‘rtacha oylik ish haqi



## Savdo sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m



**2 478,9**

*Oziq-ovqat mahsulotlari,  
jumladan, ichimliklar va  
tamaki mahsulotlari  
ulgurji savdosi*



**4 428,1**

*Avtomobil va  
mototsikllarning  
savdosidan tashqari  
ulgurji savdo*



**9 525,2**

*Avtomobil va  
mototsikllarning ulgurji va  
chakana savdosi va ularni  
ta‘mirlash*




**1 336,5**

*Avtomobil va  
mototsikllarning  
savdosidan tashqari  
chakana savdo*

Savdo sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta‘mirlash (9 525,2 ming so‘m)da, eng past ko‘rsatkich esa avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo (1 336,5 ming so‘m)da kuzatildi.

### Hududlar kesimida



### O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m



Savdo sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Taxiatosh tumanida (4 435,4 ming so‘m) qayd etilgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkich Nukus shahrida (2 882,3 ming so‘m) kuzatildi.

### Tashish va saqlash sohasida o‘rtacha oylik ish haqi



## Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi



**5 425,1** ming so‘m

Ombor xo‘jaligi va yordamchi  
transport faoliyati



**5 414,9** ming so‘m

Quruqlikdagi va quvur  
transporti




**2 037,4** ming so‘m

Pochta va kuryerlik faoliyati




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyatida (5 425,1 ming so‘m)da, eng past ko‘rsatkich esa pochta va kuryerlik faoliyati (2 037,4 ming so‘m)da kuzatildi.

### Hududlar kesimida




### O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Qo‘ng‘irot tumani (6 400,4 ming so‘m)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o‘sish sur‘ati Ellikqal‘a tumanida (158,7%), Nukus shahrida (139,4 %) hamda Qo‘ng‘irot tumanida (131,4 %) qayd etildi.

### O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

**Axborot va aloqa sohasida o‘rtacha oylik ish haqi**



**Axborot va aloqa sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi**




Axborot va aloqa sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi aloqa sohasi (7 636,3 ming so‘m)da, eng past ko‘rsatkich esa noshirlik faoliyati (2 236,4 ming so‘m)da kuzatildi.

## Hududlar kesimida




■ ming so'm    ● o'sish sur'ati

## O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm



Axborot va aloqa iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Nukus shahri (6 382,7 ming so'm) da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Qonliko'l tumani (2,5 barobarga), Kegeyli tumanida (2,1 barobarga), Chimboy (2,0 barobarga) hamda Mo'ynoq tumanlarida (147,5 %) qayd etildi.

## Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi



**Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi**



**5 920,0** *ming so‘m*

Majburiy ijtimoiy sug‘urtalashdan tashqari, qayta sug‘urtalash va nafaqa jamg‘armalari faoliyati



**10 897,4** *ming so‘m*

Sug‘urtalash va nafaqa ta‘minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar




**4 415,7** *ming so‘m*

Moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish va sug‘urtalash bo‘yicha yordamchi faoliyat

Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi sug‘urtalash va nafaqa ta‘minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar (10 897,4 ming so‘m)da eng past ko‘rsatkichi esa moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish va sug‘urtalash bo‘yicha yordamchi faoliyati (4 415,7 ming so‘m)da kuzatildi.

**Hududlar kesimida**




● *ming so‘m*      ● *o‘rta oylik ish haqi o‘zgarishi (%)*

**O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi,**



Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Nukus shahri (12 255,9 ming so‘m) da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o‘rta oylik ish haqi o‘zgarishi Qonliko‘l tumani (136,9 %), Taxtako‘pir tumani (132,5 %) hamda Taxiatosh tumanida (132,1 %) qayd etildi.

## Ta‘lim sohasida o‘rtacha oylik ish haqi




## Ta‘lim sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi




Ta‘lim sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi oliy ta‘lim (6 109,9 ming so‘m) da, eng past ko‘rsatkich esa maktabgacha ta‘lim (1 696,2 ming so‘m) da kuzatildi.


**Ta‘lim sohasida tarmoqlar bo‘yicha ish haqi o‘zgarishi dinamikasi**



**Hududlar kesimida**




**O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m**




Ta‘lim sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Nukus shahri (3 998,0 ming so‘m), Kegeyli tumani (3 053,6 ming so‘m) hamda Xo‘jayli tumanlari (3 031,0 ming so‘m)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o‘sish sur‘ati Shumanay tumanida (124,3 %), Qorao‘zak tumanida (120,0 %), Nukus shahrida (119,3 %), hamda Qo‘ng‘irot tumanida (118,9 %) qayd etildi.

## Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida o‘rtacha oylik ish haqi




### Hududlar kesimida



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasining faoliyati turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Qonliko‘l tumani (3 854,4 ming so‘m), Chimboy tumani (3 803,3 ming so‘m), Xo‘jayli (3 496,4 ming so‘m) tumanlarida hamda Nukus shahrida (3 484,7 ming so‘m) kuzatildi. Shuningdek, yuqori o‘shish sur‘ati Mo‘ynoq (128,3 %), Taxtako‘pir (125,4 %) hamda Bo‘zatov tumanlarida (122,4 %) tumanlarida qayd etildi

### O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m



## STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Nominal hisoblangan ish haqi** – ma’lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

**O‘rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni** – homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta’tilda bo‘lgan, bevosita tug‘uruqxonaning o‘zidan yangi tug‘ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta’tilda bo‘lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma’lum bir yoshga to‘lguniga qadar parvarish qilish bo‘yicha ta’tilda bo‘lgan ayollar; ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo‘shimcha mehnat ta’tilida bo‘lganlar, shuningdek, ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta’tilda bo‘lgan xodimlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o‘rtacha sonini ifodalaydi.

**Ish vaqti**- korxonada yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo‘lgani dan qat’iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

**Ish haqi**- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to‘lovlar bo‘lib, ular hisoblangan summalar yig‘indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo‘linadi: ish haqi va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar.

**Ish haqiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar**- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta’sir ko‘rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to‘lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o‘zgarishlari, mehnatga bo‘lgan talab, narxining o‘zgaruvchanligi, iste’mol tovarlari va xizmatlar narxi o‘zgarishi va boshqalar kiradi.